

## VII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentyabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash haqida"gi 274- son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

### Korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)




Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka yega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga yega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda davogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi,**  
(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish surati, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (128,9 foiz), savdo (132,5 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (111,4 foiz), sanoat (121,5 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (119,9 foiz) axborot va aloqa (116,6 foiz), qurilish (114,8 foiz), tashish va saqlash (112,8 foiz) va boshqa turlar (107,6 foiz) sohalariga to'g'ri keladi.



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(1- yanvar holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 48 481 tani tashkil yetib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4 381 taga yoki 110,4 % ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 30,7 % savdo, 21,7 % sanoat, 7,7 % qurilish, 5,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,8 % qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 3,6 % tashish va saqlash, 2,7 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 21,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xududlar kesimida soni va o‘rinish surati, %**

(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni**  
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1- yanvar holatiga 41 264 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar soni, shundan xususiy korxonalar – 11 929 ta, oilaviy korxonalar – 5 883 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyat – 22 751 ta, aksiyadorlik jamiyati – 52 ta, unitar korxonalar – 236 ta va boshqa turdagi korxonalar – 413 tani tashkil etadi.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni**  
(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 23,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 mingtaga yoki 120,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 22,8 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,6 mingtaga yoki 119,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 5,7 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,2 mingtaga yoki 128,8 %ga oshganligini ko'rish mumkin.




**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning xududlar bo'yicha soni**  
( yanvar-dekabr oylarida)




2021- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (13,8 %), Qo'qon shahar (10,5 %), Marg'ilon shahar (7,3 %), Quva tumani (5,4 %), Oltiariq tumani (5,2 %), Toshloq tumani (5,2 %), O'zbekiston tumani (5,1 %), Bag'dod tumani (4,9%), %, Dang'ara tumani (4,7 %), Uchko'prik tumani (4,6 %), Buvayda tumani (5,3 Rishton tumani (4,4 %), Farg'ona tumani (4,3 %), Beshariq tumani (4,3 %), Quvasoy shahar (3,6 %), Qo'shtepa tumani (3,3 %), Furqat tumani (3,0 %), Yozyovon tumani (2,8 %), So'x tumani (2,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)



**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, birlikda)



**Hududlar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, birlikda)






### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 545 tani tashkil etib, ulardan 534 tasi yoki 98,0 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 77 taga yoki 116,5 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 93 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.




### Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni



## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi**  
(1- yanvar xolatiga ko'ra, yillar kesimida, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami</b>	<b>199</b>	<b>281</b>	<b>415</b>	<b>451</b>	<b>534</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	4	9	26	27	29
<b>Sanoat</b>	141	185	240	260	284
<b>Qurilish</b>	4	7	10	15	28
<b>Savdo</b>	17	38	74	81	113
<b>Tashish va saqlash</b>	6	6	12	13	14
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	8	11	14	15	14
<b>Axborot va aloqa</b>	3	4	4	4	3
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	5	7	9	9	9
<b>Boshqa turlar</b>	11	14	26	31	40

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining xududlar kesimida soni


(2021- yil yanvar-dekabr xolatiga, birlikda)

	Ro'yxatga olinganlar	2021-yil yanvar-dekabr	
		yangi tashkil etilgan	tugatilgan
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>545</b>	<b>93</b>	<b>20</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	174	31	12
Qo'qon	72	11	1
Quvasoy	33	4	
Marg'ilon	27	4	
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	24	7	1
Qo'shtepa	9	1	
Bag'dod	16	3	
Buvayda	11	3	
Beshariq	11	4	
Quva	24	1	
Uchko'prik	24	7	
Rishton	12	1	1
So'x	8	1	
Toshloq	19	5	
O'zbekiston	26	3	
Farg'ona	27	4	1
Dang'ara	16		2
Furqat	7	3	2
Yozyovon	5		

## Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- yanvar xolatiga 6 063 tani tashkil etib, ulardan 5 778 tasi yoki 104,9 % faoliyat yuritmoqda.

**Oilaviy korxonalarning yillar kesimidagi soni**  
(birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni,**  
(2022- yil 1- yanvar xolatiga ko'ra, birlikda)

